XALQ DEPUTATLARI MIRISHKOR TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 12 - mart VI-32-32-4-63-K/22 Mirishkor tuman hokimligi

Mirishkor tumanidagi Qumbangi mahalla fuqarolar yig‘ini nomiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 9 va 10-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni 36-bandi hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2021 yil 17 noyabrdagi B-97-sonli yig‘ilish bayoni topshiriqlarini o‘rganib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik obyektarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2021 yil 17 noyabrdagi B-97-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi “Qumbangi” mahalla fuqarolar yig‘ini “Nurafshon” mahalla fuqarolar yig‘ini deb atalsin.

3. Tuman statistika bo‘limi v.b (J.Donyorov), davlat Kadastrlar palatasi tuman filiali (J.Bayramov), tuman Moliya bo‘limi (A.Shukurov), tuman qurilish bo‘limi (N.Aslonov) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari, tuman hokimligi bilan birgalikda nomi o‘zgartirilgan mahallani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (M.Bo‘riyev) nomi o‘zgargan mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin hamda “Nurafshon” mahalla fuqarolar yig‘iniga aylanma muhr va tamg‘asini tayyorlashga ruxsat berilsin.

5. Tuman qurilish bo‘limi (N.Aslonov) ga nomi o‘zgartirilgan mahallaning yangi nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror rasman qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Yagmurov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Sh.Ch.Sanayev**